

“NAVRO‘Z” LEKSEMASIGA OID BIRLIKLARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

B.Zaripov,

NavDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Annotatsiya. Maqolada Navro‘z bayramiga oid leksik birliklarning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”dagi talqini lingvistik, lingvokulturologik, pragmatik va leksikografik jihatdan tahlil qilinadi. Navro‘z konsepti bilan bog‘liq “sumalak”, “ko‘klam”, “sayil”, “hashar”, “bahor”, “baraka”, “yangi kun” kabi birliklarning izohlanish modeli, ularning milliy tafakkurdagi o‘rni talqin qilingan. “Navro‘z” leksikasining semantik maydoni haqidagi va milliy-madaniy birliklarni izohlashning modeli haqidagi mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. “Navro‘z” va unga oid birliklar, leksikografik talqin, lingvokulturologik jihatlar, pragmatik tahlil, semantik maydon.

Аннотация. В статье анализируется интерпретация лексических единиц, связанных с праздником Навруз, в «Толковочном словаре узбекского языка» и «Узбекской национальной энциклопедии» с лингвистической, лингвокультурологической, прагматической и лексикографической точек зрения. Интерпретируется модель интерпретации таких единиц, как «сумалак», «ко‘klam», «сайил», «хашар», «бахор», «баракка», «янги кун», относящихся к понятию Навруз, и их место в национальном мышлении. Представлено семантическое поле лексикона «Навруз» и модель интерпретации национально-культурных единиц.

Ключевые слова: «Навруз» и связанные с ним единицы, лексикографическая интерпретация, лингвокультурологические аспекты, прагматический анализ, семантическое поле.

Abstract. The article analyzes the interpretation of lexical units related to the holiday of Navruz in the “Explanatory Dictionary of the Uzbek Language” and the “Uzbek National Encyclopedia” from a linguistic, linguoculturological, pragmatic and lexicographic perspective. The interpretation model of units such as “sumalak”, “ko‘klam”, “sayil”, “hashar”, “bahor”, “baraka”, “yangi kun” related to the concept of Navruz, their place in national thinking is interpreted. The semantic field of the “Navruz” lexicon and the model of interpretation of national-cultural units are presented.

Keywords. “Navruz” and units related to it, lexicographic interpretation, linguoculturological aspects, pragmatic analysis, semantic field.

Kirish. Qadriyatlar inson va jamiyat uchun muhim bo‘lgan moddiy va ma’naviy boyliklar, an’analar hamda axloqiy mezonlar yig‘indisidir. Har qanday millatning ma’naviy qadriyatlarini tadqiq etish, o‘sha xalqning mifologik tasavvurlari, olam va odam haqidagi qarashlarini o‘rganish orqali tafakkur tadriji taklomilini aniqlash, millatning milliy o‘ziga xosliklari borasida aniq xulosalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi. Navro‘z Sharq xalqlari tarixida oddiy bayram emas, balki kosmik uyg‘onish, tabiat va inson o‘rtasidagi uyg‘unlik, ruhiy poklanish va yangi hayot falsafasining ramzi sifatida shakllangan. Navro‘z dunyodagi eng qadimgi sug‘orma dehqonchilik madaniyati shakllangan ona diyorumizda yuzaga kelganligi uchun ham hamisha rizq-ro‘zimiz manbai tabarruk zaminni sevishga, mehnatni qadrlashga, ko‘klam mo‘jizalaridan, yangilanish-yasharishdan, hayotdan zavqlanishga o‘rgatadi. Shu bois “Navro‘z” konsepti bilan bog‘liq birliklarning izohli lug‘atlar va ensiklopedik manbalarda qanday talqin etilishi milliy tafakkurning lingvistik modeli sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Leksikografiya tilshunoslikning eng murakkab va qadimiy sohalaridan biri bo'lib, unda millatning tafakkuri, tarixiy xotirasi va madaniy dunyoqarashi mujassamlashadi. Har bir lug'aviy birlik xalqning ma'naviy hayoti, ijtimoiy tajribasi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi semantik markaz hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Navro'z bayramiga oid birliklar o'zbek xalqining qadimiy sivilizatsion qatlamini ifodalovchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida alohida ilmiy izohlanishi lozim. Bugungi kunda zamonaviy lingvokulturologiya va pragmalingvistika sohalarining rivojlanishi natijasida milliy-madaniy birliklarni oddiy semantik tavsif asosida izohlash lozim. Endilikda leksikografik izohda tarixiy, kulturologik, diskursiv va mental komponentlar ham aks etishi zaruriyati paydo bo'lmoqda.

Navro'z leksemasining semantik maydonini *bahor, quyosh, ko'klam, bayram, sayil, yangi yil, uyg'onish, yasharish, milliy taomlar, sumalak, ko'k somsa, halim, urf-odat, an'ana, qadriyat, qo'shiq, raqs, xalq o'yinlari, mehr-oqibat, saxovat, tinchlik, baraka, poklanish, dehqonchilik, ekin-tikin, boychechak, milliy kiyimlar, atlas, to'n, do'ppi, belbog'* kabi birliklar tashkil etadi.

Navro'z semantik maydoniga kiruvchi birliklar o'zbek xalqining ma'naviy dunyosi, estetik tafakkuri va jamoaviy ongini ifodalovchi lingvomadaniy tizimni ko'rish mumkin.

Navro'z konseptining tarixiy-falsafiy mohiyati. Navro'z termini fors tilidagi "nav" va "ro'z" komponentlaridan tashkil topgan bo'lib, "yangi kun" ma'nosini bildiradi. Ushbu birlik qadimgi eroniy va turkiy xalqlarning mifologik tasavvurlarida tabiatning qayta tirilishi, astronomik yangilanish va hayotning davomiyligini anglatgan.

Badiiy adabiyotda Navro'z bahor, muhabbat, ruhiy komillik va estetik uyg'onish timsoli sifatida tasvirlanadi. Xususan, xalq og'zaki ijodida, she'riyatda bahor manzaralari bilan bog'liq poetik obrazlar "navro'z" konseptining badiiy-estetik modelini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. *"O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi Navro'z leksemasiga oid birliklar.* "O'zbek tilining izohli lug'ati" da Navro'z bilan bog'liq birliklar ko'proq etnografik va maishiy mazmun asosida izohlangan. Masalan, "sumalak" leksemasiga "undirib o'stirilgan bug'doy, un va yog' aralashmasidan tayyorlanadigan xusxo'r holvaytarsimon ovqat (odatda bahor kezlari ayollar o'rtasida xalfana asosida pishiriladi)" [O'TIL, 3.586-b.] tarzida izoh beriladi. Sumalak *"hosildorlik timsoli", "ayollar birdamligi modeli", "marosimiy birlik", "folklor-mifologik konsept", "baraka va qut"* ramzi hisoblanadi.

"Hashar" leksemasi lug'atda O'TILda "biror ishni bajarishda ko'pchilikning ixtiyoriy, beg'araz ko'magi" [O'TIL, 5. 517-b.] sifatida talqin qilingan. "Ko'klam", "sayil", "bahor", "baraka", "qut" kabi birliklar ham lug'aviy jihatdan qisqa tavsiflangan.

Boychechak 1) Piyozguldoshlar (piyozgullilar oilasi)ga mansub, ilk bahorda ochiladigan ko'p yillik o'simlik.

2) etn. Erta ko'klam, boychechak chiqqan paytda, eshikma-eshik yurib aytiladigan maxsus xalqona qo'shiq.

Ko'klam –Yilning qish bilan yoz ora-ligidagi fasli; bahor .

Qut 1) boylik, baxt; baraka.

Baraka – 1) biror narsaning (asosan, nozu ne'matlar, ekin hosili) kutilgan darajadan mo'ligi, seroblighi.

2) olloh beruvchi nasiba, ne'mat; ehson.

3) biror narsa yoki harakatdan keluvchi foyda, naf; samara, unum.

4) ko'chma *so'zlashuv tilida* qo'shaloq ko'sak va shunday ko'sakda ochilgan paxta; qo'shaloq meva.[O'TIL, 2.263-b.]

Ensiklopedik talqin va qomusiy tafakkur. “O'zbek milliy ensiklopediyasi”da Navro'zga oid birliklar izohli lug'atga qaraganda kengroq va tarixiy-kulturologik tavsif asosida sharhlanadi. Ensiklopediyada Navro'zning qadimgi Sharq xalqlari tarixidagi o'rni, temuriylar davridagi nishonlanishi, mustaqillikdan keyingi tiklanish jarayonlari va xalq marosimlari haqida keng ma'lumot beriladi. Ensiklopedik talqinda quyidagi jihatlar kuchli: tarixiy genezis; etnografik ta'rif; astronomik asos; marosimiy qatlam; madaniy-falsafiy ma'no.

“Navro'z” leksik birligining lingvokulturologik tahlili: *navro'z* leksikasi o'zbek xalqining qadimiy dehqonchilik rivoji, mifologik tasavvurlari va estetik qarashlarini aks ettiradi.

“Bahor” birligi esa o'zbek mentalitetida: “yangilanish”, “muhabbat”, “hayot”, “ruhiy poklanish” timsolidir. “Ko'klam” so'zi esa xalq og'zaki ijodida kosmik uyg'onish modeli sifatida talqin qilinadi.

“Navro'z” leksemasining muhim xususiyatlaridan biri uning emotsional-ekspressiv semantikaga ega ekanidir. Masalan: “Navro'zingiz muborak bo'lsin”; “Xush kelding, Navro'z!”, “Bahor nafasi keldi”, “Navro'z–yangilanish, yasharish fasli”, “Ko'ngillarga Navro'z kirdi” kabi birliklar kommunikativ yaqinlik va samimiyatni ifodalaydi.

Pragmatik va diskursiv xususiyatlar. Pragmalingvistika nuqtai nazaridan “*navro'z*”ga oid leksik birliklar ijobiy emotsional ta'sir uyg'otuvchi kommunikativ vositalardir. Ular milliy hamjihatlik, mehr-oqibat, samimiy tilak-istaklarni ifodalovchi diskursiv birlik sifatida faol qo'llanadi. Kommunikantning emotsional va mental munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Izohli lug'atda birliklarning semantik tavsifi ustuvor bo'lsa, ensiklopedik manbalarda tarixiy-madaniy qatlam kengroq ochiladi. Biroq zamonaviy lingvokulturologiya va pragmalingvistika nuqtai nazaridan qaralganda, Navro'z birliklarini izohlashda ramziy, diskursiv va emotsional komponentlarni ham kuchaytirish zarur.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, navro'zga oid birliklarning “O'zbek tilining izohli lug'ati” va “O'zbek milliy ensiklopediyasi”dagi talqini uyg'unlashtirilgan holatda milliy tafakkur va tarixiy xotiraning muhim lingvistik modeli hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – 1-jild.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 3-jild.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 5-jild.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent, 2003. – 6-jild. – B. 271–274.
5. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 52–67.
6. Safarov Sh. Pragmatika asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. – B. 91–104.
7. Mirzayev T. O'zbek folklori va marosimlari. – Toshkent: Fan, 1979. – B. 144–159.

